

# Hamkorlar

## HAMKORLAR

Kafedra o'z o'quv-uslubiy va ilmiy ishlarini ko'pgina mahalliy Oliy ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasalari hamda xalqaro universitetlar bilan birgalikda o'zaro hamkorlik asosida olib boradi. Bunday tashkilotlar jumlasiga quydagilar kiradi: O'zR Fanlar Akademiyasining Yadro fizikasi ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent Davlat texnika universiteti, Toshkent Davlat transport universiteti, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti va boshqalar bilan hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga institimizda tayyorlanayotgan kadrlarni sifat darajasini yanada oshirish va kafedrada o'tiladigan fanlar bo'yicha yuqori saviyada dars berish uchun O'zR Fanlar akademiyasining institutlarida va Turdosh OTMlardan olimlar o'rindoshlik asosida dars berishga taklif qilingan.

Shu bilan birgalikda kafedrada xorijiy davlatlar universtetlari bilan ham yaxshi hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Hozirda Amerika Qo'shma Shtatlarining Nyu Meksiko shtat universiteti, Kaliforniya shtat universiteti, Chikago universiteti, Texas qishloq xo'jaligi va mexanizatsiya universiteti, Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti, Ispaninyaning Madrid politexnika universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Rossianing Moskva Energetika instituti, K.A. Timiryazev nomidagi Rossiya Davlat Agrar universitetlari bilan o'quv – uslubiy va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha hamkorlik ishlari olib borilmoqda. AQSh ning Shimoliy Dakota Shtat universiteti professori Tom Bon bilan hamkorlikda har yili kafedrada professor-o'qituvchilar ishtirokida yozdi ilmiy-amaliy seminarlar o'tkazilib kelinmoqda.

<b>Kafed ra nomi</b>	<b>Korxona nomi</b>	<b>Hamkorlik shakllari</b> (malaka oshirish, o'quv amaliyoti, doktorlik, nomzodlik, magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlari, kurs ishlari ilmiy-tadqiqot ishlarida hamkorlik, xo'jalik shartnomasi va hokazo)
<b>EvaM</b>	O'zStandart agentligi, O'zbekiston milliy metrologiya instituti	Qiymati 2.2 mlrd.so'm bo'lgan "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlash" ilmiy – innovatsion laboratoriya tashkil etildi. Kafedra ilmiy tadqiqotchilari A.U.Gapparov va YA.E.CHo'llievlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Energetika fakulteti 60722900 – TTTEvaM va 60711500 – MvaR ta'lif yo'nalishlari talabalari malakaviy amaliyotlarini olib borishadi.
<b>EvaM</b>	Toshkent qishloq xo'jalik texnikalari ishlab chiqarish korxonasi;	o'quv amaliyoti
<b>EvaM</b>	"MMM Energy" MCHJ korxonasi.	Elektrotexnik qurilmalarning energo auditini o'tkazish va tashkil etish bo'yicha korxonalarda ekspertiza o'tkazish
<b>EvaM</b>	Yashnaobod "Texnopark"	QSXET fakuleti 60722900 – TTTEvaM va 60711500 – MvaR ta'lif yo'nalishlari talabalari malakaviy amaliyotlarini olib borishadi.
<b>EvaM</b>	"O'zbek Ekspertiza" AJ	QSXET fakuleti 60722900 – TTTEvaM va 60711500 – MvaR ta'lif yo'nalishlari talabalari malakaviy amaliyotlarini olib borishadi.